



Tadqiqot UZ

2021

ЎЗБЕКИСТОН
ОЛИМЛАРИ ВА
ЁШЛАРИНИНГ
ИННОВАЦИОН
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ТАДҚИҚОТЛАРИ
МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ

- » Хуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидағи изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



Crossref



CONFERENCES.UZ

31 MART
№26

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 26-КҮП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ
3-ҚИСМ**

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ
26-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"
ЧАСТЬ-3**

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN
26-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL
RESEARCH IN UZBEKISTAN"
PART-3**

ТОШКЕНТ-2021



УУК 001 (062)
КБК 72я43

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2021]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 26-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 март 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021.- 18 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишиланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илфор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманганд мухандислик-қурилиш институти)

5.Давлат бошқаруви

PhD Шакирова Шоҳида Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги "Оила" илмий-амалий тадқиқот маркази)

6.Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чарiev Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Мусиқа ва ҳаёт

Доцент Чарiev Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулdir.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛАНИШЛАР

1. Kozimiy Muxlisa

XONLIKLER DAVRIDA AYOL – QIZLARNING JAMIYATDAGI ISHTIROKI 7

2. Savriyev Jasur Faxriddinovich

RABOTI MALIK MAJMUASI – NAVOIY VILOYATI JAVOHIRI 9

3. Рамазанова Дилдора Шоназарова

ЎҒУЗЛАРННГ КЕЛИБ ЧИҚИШИ ВА УЗБЕК ЭТНИК ЖАРАЁНИГА ТАЪСИРИ 11

4. Савриев Жасур Фахриддинович

РАБОТИ МАЛИК КАРВОНСАРОЙИ ТАРИХИ 12

5. Сайдова Наргиса Садуллаевна

ПРОГРЕССИВНЫЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ДЛЯ ХИВИНСКОГО ХАНСТВА ВЕЛИКОГО
ВИЗИРЯ АКБАРА ИСЛАМ-ХОДЖЫ 14

6. Matkurbanova Munira Maqsudovna

O'QUVCHILAR ONGIDA TARIXIY OBIDALARIMIZ HAQIDA BILIMLARINI
SHAKLLANTIRISH ORQALI ULARNI VATANPARVARLIK RUHIDA
TARBIYALASH 16



ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛАНИШЛАР

XONLIKlar DAVRIDA AYOL – QIZLARNING JAMIyatDAGI ISHTIROKI

Kozimiy Muxlisa

Imom Buxoriy nomidagi Toshkent

islom instituti 4-kurs talabasi

Telefon: +998998850519

Annotatsiya: Hozirgi kunda ayollarning ko'plab sohalarda faol bo'lib borayotganlarini ko'rishimiz mumkin. Mazkur maqola xonliklar davrida ham ayol-qizlar jamiyatdagi deyarli barcha sohalarda xususan, ijtimoiy, madaniy va ma'rifiy sohalarda faol bo'lganliklarini oolib beradi.

Kalit so'zlar: Maktabdorlik, vaqf jamg'armalari, maqsuraxon, xaramayn vaqflari, ko'chmas mulklar, karvonboshi, vaqf mulkchiligi, tarixnavislik, sovet ittifoqi.

Barchamizning dunyoga kelishimizga sababchi bo'lган mo'tabar onalarimiz, qadrdon opa – singillarimiz va g'amxo'r qizlarimizning oilamizda, jamiyatimizda tutgan o'rni beqiyosdir. Allah taolo Payg'ambarimiz Muhammad sollalohu alayhi vasallam orqali ayollarimizni qadr – qimmatini yuksaklarga ko'tarib, O'zining kalomida ham ular uchun alohida sura nozil qildi. Payg'ambarimiz sollaloh alayhi vasallam ham o'zlarining hadisi shariflarida ayollarga oid barcha masalalarni, jumladan, ularning jamiyatdagi o'rni, oiladagi, farzand tarbiyasidagi roli, ilm tarqatishdagi ma'suliyati kabilarni batafsil bayon qilib berdilar¹.

O'zbek xalqining uzoq o'tmishiga nazar soladigan bo'lsak ham ayollarga nisbatan bunday yuksak hurmat e'tibordan holi emas. Shu jumladan, ularning jamiyatdagi ishtiroki ham faol bo'lган deya olamiz.

O'zbek xalqi azaldan ilmga chanqoq xalq bo'lганligi bizga tarixdan ma'lum. Xonliklar davri misolida oladigan bo'lsak, yuzlab maktab va madrasalar xonliklarning turli yerlarida faoliyat yuritgan. Maktablar qizlar uchun alohida, o'g'il bolalar uchun alohida bo'lган. Ayollarining ham jamiyatdagi o'rni faol bo'lганiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Masalan, mashhur shoira Dilshod Qo'qonda maktab ochgan. U o'zining maktabdorlik faoliyati haqida shunday yozgan: "Mening suhabatdoshlarim va dugonalarim aqli qizlar va iste'dodli shoiralar edi. 51 yil davomida men maktabdorlik qildim va yiliga o'rtacha 20 tadan 30 tagacha o'quvchilarim bo'lib 890 ta qizlarning savodini chiqardim, bulardan deyarli chorak qismi sheriyatga qobiliyatli bo'lib, shoira va o'z davrining aqli va dono odamlari edi"². Bundan bilishimiz mumkinki ayollar ham jamiyatda nafaqat ta'lim sohasida balkim boshqa sohalarda ham yetakchilar qatoridan joy olganlar. Tarix sahifalarida ayollar vaqf jamg'armalari sohasida ham o'z nomlarini qoldirganlar.

XVII – XIX asrlarda vaqf ta'sischilari bo'lган ayollarning katta qismi o'z mulklarini vafotidan so'ng dafn etiladigan joydagi Qur'oni Karim o'quvchi- maqsuraxon uchun oldindan vaqf qilishi urf bo'lган,

XIX asr oxirida Buxoroda "Haramayn vaqflari", ya'ni Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomning Madinada qabri uchun ko'chmas mulklar (do'kon, uy yoki kichik yer maydonlari) va pullar vaqf qilish nisbatan ortgan. Bu jarayonda ayollar ham faol ishtirok etgan. Jumladan, Muqaddas begin binti Hoji Abdurauf karvonboshi Payg'ambarimiz alayhissalomning Madinadagi qabri uchun 50000 Buxoro mis tangasini vaqf qilgan. Ayollarining vaqf xayriyalari 1928 – yilda O'zbekistonda vaqf mulkchiligi tugatilgunga qadar davom etgan³.

¹ Poshshaxon Eshonxon qizi. Ayol mo'tabar zot. – Toshkent: Hilol Nashr, 2018. –B. 3.

² Manba: <https://kompy.info/bobur-nomidagi-andijon-davlat-universiteti.html?page=8>

³ Manba: <https://shosh.uz/orta-osiyoda-ayollar-vaqflari/>



Xonliklarning XVIII-XIX asrlar birinchi yarmida kechgan madaniy hayotida ham sezilarli ijobjiy o'zgarishlar va siljishlar yuz berib borganligi ayondir. XIX asrda Qo'qon xonligida tarixnavislik sezilarli ravishda o'sib borgan. Oldinlari yozilgan bir necha tarixiy asarlar fors va arab tillaridan o'zbek tiliga tarjima qilindi va yangi kitoblar yozildi. Bu yangi asarlarning o'ziga xos xususiyatlari ham bor edi – ularning ayrimlari she'riy yoki qisman she'riy yo'lida yozildi. Bu esa qo'qonlik tarixchilarning adabiyotni yaxshi bilibgina qolmay o'zlari ham she'riyatda qalam tebratganliklarini ko'rsatadi. Bunga misol qilib erkak shoirlar bilan bir qatorda bir necha ayol shoiralarni ham aytishimiz mumkin: Uvaysiy taxallusi bilan qalam tebratgan ismi Jahon; Amir Umarxonning turmush o'rtog'i, asl ismi Mohlaroyim bo'lgan Nodira; shoiralik bilan birga davlat arbobi, dodxoh vazifalarini bajargan Zinnat kabi shoiralarni yana ko'plab misol qilib keltirishimiz mumkin.

V.P. Nalivkin va M.S. Nalivkinlar "Очерки быта женщин оседлого туземного населения Ферганы" nomli kitobida "Qo'qonda ikkita shoira yashagan, birining taxallusi Zinnat, ikkinchi esa Mahzuna taxallusli. Ishontirishib aytishmoqdalarki, ulardan biri ochiq yuz bilan erkaklarcha kiyinib xon saroyiga kelar ekan va uning dodxoh unvoni ham bo'lgan. Ikkalasining ham g'azallari Umarxonni singari "Majmuat ush-shuarо" nomli she'rлar to'plamiga kiritilgan" deb yozganlar¹.

Bundan ko'rshimiz mumkinki, ayol – qizlar Sovet ittifoqining insonlarni ilmdan uzoqlashtirish siyosatiga qadar jamiyatda faol shaxslardan bo'lganlar. Yuqoridagi misollardan xonliklar davrida ayollar ijtimoiy – madaniy sohalarda ham faol bo'lganlarini yaqqol ko'rshimiz mumkin. Hozirgi kunimizda ham ayollarni shunday har sohada faol shaxslar safiga olib chiqishimiz uchun avvalo ayollarni ta'lim sohasida yetuk o'rnlarga olib chiqishimiz zarur.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati

1. Poshshaxon Eshonxon qizi. Ayol mo'tabar zot. – Toshkent: Hilol Nashr, 2018.
2. <https://kompy.info/bobur-nomidagi-andijon-davlat-universiteti>.
3. <https://shosh.uz>
4. Shamsutdinov R., Mo'minov X. O'zbekiston tarixi 11. – Andijon: 2011.

1 Shamsutdinov R., Mo'minov X. O'zbekiston tarixi 11. – Andijon: 2011. –B. 244-246.



RABOTI MALIK MAJMUASI – NAVOIY VILOYATI JAVOHIRI

Savriyev Jasur Faxriddinovich

Mustaqil tadqiqotchi

Karmana tumani Kasb hunar maktabi direktori

Tel: +998 90 647 20 26


Annotatsiya: Ushbu maqolada Navoiy viloyatida joylashgan Raboti Malik memoriy yodgorligi, obidaning geometrik parametrlari haqida malumot berilgan. Shuningdek majmua yaqinida joylashgan Sardoba hovuzi va uning vazifalari haqida fikrlar bildiriladi.

Kalit so'zlar: Raboti Malik, karvonsaroy, minora, ravoq, devor, Sardoba, hovuz, yodgorlik.

Raboti Malik yodgorligi Navoiy shahridan 10 km uzoqlikda joylashgan Qoraxoniylar davrining tarixiy kompleksi hisoblanadi. Ushbu minora Buxoro yo'lida joylashgan. Raboti-Malik karvon saroyi qoraxoniylardan bo'lgan Shams al-Mulk Nasr ibn Ibrohim (1068-1080yy) tomonidan XI asrning 70-yillarida qurilgan.

XII asrning birinchi choragida esa qoraxoniylardan bo'lgan Arslonxon Muxammad ibn Sulaymon (1102-1130) tomonidan qayta qurilgan. Taxmin qilinishicha, bu minora avval yozgi boshqaruv qarorgohi bo'lgan. Buni arxeologlar tomonidan olib borilgan ishlarning natijalaridan bilib olish mumkin. Ularga ko'ra topilgan topilmalar aynan o'sha davrda yashagan saroy zodagonlariga tegishli bo'lgan. Bundan tashqari bunday hashamatli devorlar va ustunlar o'sha davrlarda xon saroylari va qarorgohlaridagina qurilgan. Keyinchalik esa ushbu minora qayta qurilib karvonsaroya aylantirilgan.

Bugungi kunda o'sha hashamatli minoradan faqat peshtoq qismi (diametri — 12,6 m.) saqlanib qolgan. Janubiy minorasi (balandligi 5,5 m) 1930-yilgacha mayjud bo'lgan. Raboti-Malik karvonsaroy vazifasidan tashqari, istehkom, qo'rg'on sifatida ham muhim rol o'ynagan. Rabot katta keng hovli (22,5x22,5 m) va atrofi o'ralgan 2 qavatli xona-hujralardan iborat bo'lib, ularga sopol quvurlar orqali suv o'tkazilgan. Markaziy qismi to'ridagi muhtasham saroy oldi bir qatorli ravoqli ayvon (7,5x13 m) 2 qanotiga joylashgan. 20 ta g'ishtin ustun ishlangan, unga janubbdagi peshtoqli darvoza orqali kirilgan. Atrofi qalin devorlar bilan o'ralgan (janubdan va shimoldan balandligi 2,35 m, g'arb va sharqiy qismi 1,5 m, old devor balandligi 12 m ga yaqin). Maydonga qaragan janubiy tarzio'rta Osiyoda eng qadimiy bo'lib, 8 qirrali yulduzlar, turli handasiy shakllar mavjud. Ikki chekkasida burj bo'lib, ular o'zaro baland devor bilan ulangan. Devor o'rtasida piltavor burjlar qatori tepasi kichrayuvchi ravoq bilan bog'langan. Devor yuqorisi g'ishtin kufiy xatlar bilan hoshiyalangan. Burjlar tepasida ravoqli ko'shk bo'lib, undan atrofni kuzatish qulay bo'lgan. Ko'shk ostida ganchdan yasalgan ikki qator yirik sharafa va kufiy xat halqasi ko'zga tashlanadi. Rabot devorlarining o'zagi xom g'ishtdan (28x28x6,5 sm) terilgan, sirti pishiq g'ishtdan (24x24x4 sm) ishlangan. Bezaklari, asosan, g'ishtin, oz miqdorda o'yma ganch naqshlar ham uchraydi.



1-rasm. Raboti Malik memoriy yodgorligi

XX asr o'rtalarida olib borilgan qazilma ishlari jarayonida ushbu noyob minoraning qaydajada mukammal rejalshtirilganligini aniqlashga muvaffaq bo'lishgan. Bu obida ikki qismga



ajratilgan mustahkam devorlar bilan o'ralgan 100x100m hajmdagi maydonni egallagan.

Raboti Malik hududida masjidlar, gumbazli ayvonlar, hammomlar, yashash joylari, otlar va tuyalar uchun mo'ljallangan turargohlarning vayronalari topilgan. Shuningdek sopol, metallardan ishlangan buyumlar, qimmatbaho sopol idishlar, zargarlik buyumlari, qozonlar, ko'pgina tangalar topilgan. Minoran alohida uslub va g'aroyib texnik usullar bilan qurilgan. Minoraning qurilishida keramika, gil, yog' ochdan foydalanilgan. Shu kungacha olimlar minoraning nima maqsadda qurilganligini aniqlasholmagan. Ammo oxirgi vaqtarda Raboti-Malik karvonsaroy vazifasini o'tagani tarixiy faktdir. N.B. Nemsova ushbu yodgorlik o'rganib chiqilishiga o'z hissasini qo'shgan. Aynan N.B. Nemsova ushbu yodgorlik dastlabki onlarda shahardan tashqarida joylashgan saroy vazifasi ni o'tagan deb taxmin qilgan. Raboti Malik yodgorligi davlat muhofazasiga olingan.

Karvonsaroy yaqinida Sardoba (suv saqlashga mo'ljallangan sisterna) qurilgan. Sardoba o'sha davrda sayyoohlar va savdogarlar uchun ichimlik suvi saqlaydigan buлоq vazifasini bajargan. Bu sardoba diametri 13 metrcha keladigan gumbaz ostida karvonsaroya zamondosh bo'lган sardoba joylashgan. Sardoba hovuzining aylana devori yerdan 12 metr chuqurlikka qadar pishiq g'ishtdan qurilgan bo'lib, unda muzday toza suv butun yoz bo'yи saqlangan. XVI asrdagi mualliflardan biri Raboti Malik sardobasining suvini makkadagi laziz zamzam suviga qiyoslaydi. Sardoba karvonsaroy kabi yolg'iz yo'lovchilar uchun ham, butun boshli karvonlar uchun ham qo'nalg'a hisoblangan.

Karvonsaroy o'zining dastlabki vazifasi e'tibori bilan XVIII asrgacha xizmat qilib kelgan, unda Amir Temur va uning avlodlari, Buxoroda hukmronlik qilgan sulolalarning xonlari, elchilar, savdo karvonlari va sayyoohlar qo'nib o'tgan. Hofizi Abro'ning ma'lumotiga ko'ra, Ulug'bek 1420-yilda ushbu mintaqalarda to'xtab, qirq kun ov qilgan. XIX asr oxiri - XX asrning boshlarida bu erda rabot nomi bilan ma'lum umri qisqagina bo'lган qishloq ham shakllangan. Karmana - Buxoro yo'lida- bugunda qayta tiklangan qadimiy karvon yo'li bo'yida Raboti Malik (Shoh Raboti) karvonsaroyi joylashgan.

Foydalanaligan adabiyotlar

1. Xudojestvennaya kultura Sredney Azii XII - XIII vekov, T., 1983
2. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
3. www.google.uz



ЎҒУЗЛАРНИНГ КЕЛИБ ЧИҚИШИ ВА УЗБЕК ЭТНИК ЖАРАЁНИГА ТАЪСИРИ

Рамазанова Дилдора Шоназарова
Хоразм вилояти Янгибазор тумани
1-сон мактаб тарих уқитувчиси
+998994170586

Аннотация: Ушбу мақола ўғузларнинг келиб чиқиши ва уларнинг худудларга бўлиниб кетиши, бошқа қабилаларга таъсири. Шунингдек уларнинг бошқа миллатларга сингиб кетиши ўзбек этногенезида тутган мухим роли хакида боради.

Калит сузлар: Ўғузлар, қиргизлар, туркманлар, қоракуюнли қабиласи.

Ўғузлар туркий қабила Марказий Осиё ва Сирдарёнинг қуий оқимларида яшаган. VII аср бошида Турк хоқонлиги таркибига кирган. VII аср иккинчи ярмидан бошланиб угуз қабиласининг катта иттифоки пайдо бўлади. Катта кисми қиргизлар яшаб турган худудга кучиб боришади. Уйгурлар билан бирлашиб жараёни бошланади. Иккинчи катта кисми Сирдарёнинг қуий оқимига келиб ўрнашади. Янгикент шахрига асос солиб ўз давлатини барпо қилишади. X аср бошига келиб угуз қабиласи ўз давлатига асос солди. Уларнинг тиллари туркий бўлиб, ўз иттифокларига бир қатор уруғ ва қабила вакилларини бирлаштирганлар. Улар дастлаб Иссиқўл бўйлрида ва Сомонийлар Урта Осиёда ҳукумронлик қилган даврларда Хоразмнинг шимолий ва ғарбий чегараларида яшаганлар.

Ўғузлар Ўрта Осиёга IX кириб келганлар. Бу даврда улар Сирдарёнинг қуий оқими Устюртнинг шимолий Эмба ва Ёйик оралиғида яшаганлар. Уларнинг келиб чиқиши Олтой ва Жанубий Сибир билан боғлиқ. Араб тарихчиси Ал-Марварзийнинг ёзишича, ўғузлар мусулмон мамлакатлари билан алока ўрнатганларидан сўнг айримлари ислом динини кабул килади. Кейинчалик улар ислом динини кабул килган ва килмаганлар ўртасида уруш бошланган. Охир оқибатда мусулмон ўғузлар устунликка эриша бошлаб динсизларни сиқиб чикарганлар. Ислом динини кабул килмаганлар Хоразмни тарк этиб бажанаклар ерига бориб жойлашган. Ўгузларнинг катта кисми Туркманистон худудида яшовчи халқларни зabit этиб уларга ўзларининг туркий тилларини кабул килдирган ва сиёсий ўринни эгаллаб ўз мавкени юқорига олиб чиққанлар. Ўгузлар 24 қабила номларининг 8 таси ҳозирги туркманлар таркибида 10таси туркманларнинг уруг номларида сакланиб колган. Салжуқийлар қабиласининг каттагина таркибини ўгузлар ташкил килган. Кейинчалик Яқин ва Ўрта Шарққа миграция килган туркийлар ичida ўғуз-салжуқларининг таркиби доминант эди.

Ўғузларнинг хаммаси хам кучманчи булмаган. Уларнинг каттагина кисми Сирдарё қуий ва ўрта оқимларидаги шаҳар кишлоқларда ўтрок хаёт кечирган. Улар Янгикент, Жанд, Узген, Карноқ каби шаҳарларда яшаган. Аль Афийнинг "Жоме ул –хикоят" асарида ёзишича ўгузларнинг бир кисми Хоразм ерларида яшаган. XI келиб ўғузлар махаллий ахоли билан бирлашиб жараёни кучайиб кетган. Ўгузарнинг лахжаси туркман ва хоразм халқида сақланиб колган.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Иса Жабборов. Этник жараёнлар. Т., 1987
2. Г.Агаджанов. Огузская проблема и задачи ее решения. Л., 1967
3. Губайдуллина Алсу. Особенности огузских племен М., 1997г
4. С.Г. Агаджанов. "Очерки истории огузов и туркмен" Л., 1976



РАБОТИ МАЛИК КАРВОНСАРОЙИ ТАРИХИ

Савриев Жасур Фахриддинович

Мустақил тадқиқотчи

Кармана тумани Касб хунар мактаби директори

Тел: +998 90 647-20-26

Аннотация. Мазкур мақолада Навоий вилоятида жойлашган муқаддас зиёратгоҳ ва қадамжолар хақида малумотлар бепилган. Маданий мерос объектларини ЮНЕСКОнинг Бутунжаҳон мероси ёдгорликлари рўйхатига киритиш масалалари хақида мулохаза юритилган.

Калит сўзлар: ЮНЕСКО, Навоий вилояти, Работи Малик, ёдгорлик, меъморчилик, Кармана тумани, обида, карвонсарой.

Бугунги кунда жаҳон ҳамжамияти миқёсида тан олинган конвенцияларда тарихий обидаларни муҳофазалаш, консервация қилиш, таъмирлаш, замонавий қиёфаларини тиклаш масалалари кўриб чиқилмоқда. Республикаиздаги тарихий обидалар, муқаддас қадамжолар, карвонсарой, сардоба ва қадимий кўхна ҳаммомлар қайта тикланиб қурилмоқда ва баъзилари бугунги кунда очик осмон остидаги музей сифатида музейлаштирилмоқда.

Маданий мерос объектларини ЮНЕСКОнинг Бутунжаҳон мероси ёдгорликлари рўйхатига киритиш ишлари 2021-йилнинг апрель ойида тўлиқ якунланади. Президентнинг 2019-йил 12-13-март кунлари Навоий вилоятига ташрифи давомида берилган топшириғи ва кенгайтирилган тарзда ўтказилган 11-сонли йиғилиш баёнининг 107-бандига мувофиқ “Буюк Ипак йўли”нинг Зарафшон-Қорақум қисмида жойлашган “Қосим-Шайх”, “Мирсаид Баҳром”, “Работи-Малик”, “Сардоба”, “Мавлоно Ориф Деггароний” зиёратгоҳ ва қадамжоларини маданий мерос объектларини ЮНЕСКОнинг Бутунжаҳон маданий мерос ёдгорликлари рўйхатига киритиш вазифаси топширилди.

Навоий вилояти ҳокимлиги хабарига кўра, мазкур топшириқ ижроси юзасидан юқорида кўрсатилган объектларни ЮНЕСКОнинг Бутунжаҳон маданий мероси рўйхатига киритиш бўйича ўтган йилнинг 20-май куни вилоят туризмни ривожлантириш бошқармаси ва Ўрта Осиё Халқаро тадқиқотлар институти (ПСАИ) ўртасида катта суммада икки томонлама шартнома имзоланди.

Қайд этилишича, “Қосим-Шайх”, “Мирсаид Баҳром”, “Работи-Малик”, “Сардоба”, “Мавлоно Ориф Деггароний” маданий мерос объектларини ЮНЕСКОнинг Бутунжаҳон маданий мероси ёдгорликлари рўйхатига киритиш ишлари шу йилнинг апрель ойида тўлиқ якунланади.

Вазирлар Маҳкамасининг 2018-йил 28-августдаги 708-Ф-сон фармойишига илова қилиб Вақф хайрия жамоат фондига текин фойдаланиш шартномаси асосида бириктириш бўйича муқаддас қадамжо ва зиёратгоҳларни келтириб ўтамиз. Бунда муқаддас зиёратгоҳ номи ва жойлашган манзил, муқаддас зиёратгоҳ мулқдори ва зиёратгоҳдан фойдаланувчилар хақида малумотлар берилган.

1. **“Қосим Шайх” мажмуаси.** Кармана тумани Кармана шаҳрида жойлашган. Маданият вазирлигига қарашли. Маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланиш илмий-ишлаб чиқариш бош бошқармаси ва Ўзбекистон мусулмонлари идораси томонидан фойдаланилади.

2. **“Мирсаид Баҳром” зиёратгоҳи.** Кармана тумани “Мирсаид Баҳром” МФЙ да жойлашган. Маданият вазирлигига қарашли. Маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланиш илмий-ишлаб чиқариш бош бошқармаси ва Ўзбекистон мусулмонлари идораси томонидан фойдаланилади.

3. **“Мавлоно Ориф Деггароний” зиёратгоҳи.** Кармана тумани Хазора МФЙ да жойлашган. Маданият вазирлигига қарашли. Маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланиш илмий-ишлаб чиқариш бош бошқармаси ва Ўзбекистон мусулмонлари идораси томонидан фойдаланилади.

4. **“Чил Устун ва Кўк гумбаз” (Чашма) мажмуаси.** Нурут тумани Нурут шаҳрида жойлашган. Маданият вазирлигига қарашли. Маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланиш илмий-ишлаб чиқариш бош бошқармаси ва Ўзбекистон



мусулмонлари идораси томонидан фойдаланилади.

5. "Авлиё ота" зиёратгоҳи. Нурота тумани Темир қовоқ МФЙ да жойлашган. Бирор шахсга мулқ ҳуқуқи асосида тегишилиги бўйича ҳужжатлар мавжуд эмас. Ўзбекистон мусулмонлари идораси томонидан фойдаланилади.

6. "Боязид Бастомий" қадамжоси. Қизилтепа тумани, Бўстон МФЙ да жойлашган. Маданият вазирлигига қарашли. Маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланиш илмий-ишлаб чиқариш бош бошқармаси ва Ўзбекистон мусулмонлари идораси томонидан фойдаланилади.

7. "Хўжа Ҳасан Андокий" зиёратгоҳи. Кизилтепа тумани, Сарой МФЙ да жойлашган. Маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланиш илмий-ишлаб чиқариш бош бошқармаси ва Ўзбекистон мусулмонлари идораси томонидан фойдаланилади.

8. "Шайх Абул Ҳасан Ҳарақоний" зиёратгоҳи Навбаҳор тумани Қалқонота МФЙ да жойлашган. Маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланиш илмий-ишлаб чиқариш бош бошқармаси ва Ўзбекистон мусулмонлари идораси томонидан фойдаланилади.

9. "Қанарабой ота" зиёратгоҳи. Учқудук тумани Узунқудук МФЙ да жойлашган. Маданият вазирлигига қарашли. Маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланиш илмий-ишлаб чиқариш бош бошқармаси ва Ўзбекистон мусулмонлари идораси томонидан фойдаланилади.

10. "Қилич ота" зиёратгоҳи. Конимех тумани Шўркўл МФЙ да жойлашган. Маданият вазирлигига қарашли. Маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланиш илмий-ишлаб чиқариш бош бошқармаси ва Ўзбекистон мусулмонлари идораси томонидан фойдаланилади.

Навоий вилояти Кармана туманинаги Кармана Бухоро йўли устида курилган бугунги кунда кайта тикланаётган “Буюк ипак йўли”нинг фахри ва ғурури “Сардоба” ва “Малик Работ” – карвонсаройи бунга яққол мисол бўла олади. Меросимизни таъмирлаш муаммолари – маълум бу санъат ва маданият асари ҳамда ёдгорликларни таъмирлаш эмас, балки бу энг аввало миллатнинг маънавий бойликларини сақлаб қолиш билан боғлиқдир. Тарихий ёдгорликларнинг қўпчилиги Кармана тумани ва унинг атрофида жойлашган бўлиб, узоқ йиллар тарих силсилалигига бардош берган ва ўз тарихий обидаларини асрлар оша авайлаб келган. Бу обидалар эса бевосита Навоий вилояти Кармана туманининг обод этилиши билан узвий боғлиқ ва воҳа тарихининг кўпгина қиррасини очиб, унинг янада кўркамлашиши учун ахамиятлидир.

Работи-Малик- Марказий Осиёдаги ўрта аср тарихи ва маданиятига алоқадор энг ажойиб ёдгорликлардан биридир. Ушбу ёдгорликлар фан, санъатшунослик, архитектура соҳасида ўзбек халқининг маънавий-маърифий равнаки тарихини ўрганишда катта аҳамитятга эга бўлиб, алоҳида ўрин тутади. Работи-Малик Қораҳонийлар даври меъморчилигининг мумтоз намунасидир. Унда Сомонийлар даври қурилиш соҳасининг энг яхши аньана ва ютуқлари акс этиб, Марказий Осиё меъморчилиги, ҳамда амалий безак санъати янада юксалишида яловбардор бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти ВМ нинг қарор ва фармонлари.
2. О.Ҳайтова, Х.Курбонов “Кармана тарихи”, “Машхур – Пресс Нашриёти”.
3. Шухрат Халилов “Карманаю Пирга бой” “Янги китоб нашриёти”.
4. Ш.Ж.Асқаров “Тарихий шаҳар сайёхлик обьекти сифатида”, “Ўзбекистон меъморчилиги ва қурилиши”.
5. Ў.М.Мавлонов. Марказий Осиёнинг қадимги йўллари. Тошкент Академия нашриёти. 2008 йил.



ПРОГРЕССИВНЫЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ДЛЯ ХИВИНСКОГО ХАНСТВА ВЕЛИКОГО ВИЗИРЯ АКБАРА ИСЛАМ-ХОДЖЫ

Сайдова Наргиса Садуллаевна
Хорезмский область Янгибазарский район
Бузкалинский коллективное хозяйство
учитель второй категории по истории

Аннотация: Это статья посвящается жизни и деятельности великому Акбару визиру который внёс огромный вклад в развитие культуры, экономики и просвещения.

Ключевые слова: Джадидизм, бегар, реформа, вакуфные земли, генерал- губернатор.

Сайд Ислам- ходжа сын Сайд Ибрахим ходжа родился в 1872 году в семье представителя исламского духовенства. Он учился в Хивинском медресе. Помимо родного узбекского языка, владел персидским и туркменским языком. В начале своей карьеры являлся наместником в Хазараспе. В 1907 году в возрасте 35 лет был назначен главным визирем Хивинского ханства. В тот период ханом являлся Мухаммад Рахимхан-II. В 1910 году после смерти Мухаммад Рахимхана-II и воцарения в место него его сына Асфандиярхана, Ислам-ходжа начал играть ещё большую роль в жизни развитие Хивинского ханства.

В эпоху правления Асфандияр-хана Ислам-ходжа несколько раз бывал в Санкт Петербурге и в Москве. Он восхищался европейской культурой, пытался распространять современную культуру в ханстве. С разрешения хана принимал в ханстве иностранных послов и делегации из европейских стран. Благодаря предприимчивости он поднялся до уровня Великого визиря (Вазири Акбар). Потому что он пытался модернизировать ханство. С его усилиями на свои собственные средства были построены хлопкоочистительный завод, первая в ханстве электростанцию, больницу и аптеки, почту, телеграф и светские школы джадидизма а также русскую школу. Джадидское движение это идеология исламского модернизма. Сайд Ислам-ходжа являлся руководителем правого крыла хорезмских джадидистов, которая объединяло промышленников, купцов и торговцев. Правое крыло хорезмских джадидов в отличие от левого крыла, выступали за сохранение монархии в Хорезме, но при условии осуществления либеральных преобразований и масштабных реформ общественно- политической и экономической жизни ханства.

В 1910 году на средства Ислам-ходжи было завершено строительство на юго- востоке Иchan-калы крупного комплекса – медресе и минарет Ислам-ходжи. В этом же году Ислам-ходжа разработал десять приоритетных концепции относящее к реформированию Хивинского ханства. Программа из десяти пунктов определял следующее:

1. Все чиновники ханского двора должны получать заработную плату из ханской казны.
2. Отменить бесплатную работу бегар которое каждый весенние и осенние дни очищали и реставрировали каналы.
3. Пересмотреть все виды налогов и установить определенную сумму для всех (кочевых и оседлых земледельцев
4. Упорядочить водные ресурсы
5. Реконструировать все дороги. мосты и каналы
6. Упорядочить платежи на базаре и установить приемлемую сумму.
7. Построить современные больницы с современными оборудованием. Пригласить русских врачей. Повысить медицинские услуги для населения.
8. Заново пересмотреть доходы вакуфных земель. А также доходы от вакуфных земель делить для развития культуры и просвещения.
9. Внедрить бесплатное и обязательное образования. Во всех школах преподавать русский язык, география и история.
10. Упорядочить хансскую казну.

А также он планировал постройку железной дороги которая связывала Чарджой с Хивинским ханством. Ислам- ходжа выступал против разорительных религиозных обычаяев. Он требовал также пересечения произвола чиновников и введения административных реформ, которые предупредили бы растущее недовольства крестьянских масс. Это согласовывалось с мнением Туркестанского- генерал губернаторства. Ханское правительство вы-



нуждено было в 1910 году опубликовать манифест. После публикации Манифеста многие духовные лица лишились своих прав. По некоторым данным им удалось склонить на свою сторону Асфандияр-хана. Они убедили его в том, что Ислам-ходжа представляет собой угрозу ханской власти. В 1913 году в одном из дней Асфандияр-хан пригласил его в свой загородный дворец и отпустил его ночью. По дороге в свой загородный который находился возле кладбища Оглан- Азиз-бобо на Ислам-ходжу напали несколько человек и нанесли на него смертельных ножевых ранений.

По словам основателя младохивинцев- Полвонияз Ходжи Юсупова непосредственным заказчиком убийства являлся сам Афандияр-хан.

Вот так печально и очень трагически кончается жизнь великого деятеля реформатора, просветителя Ислам-ходжи. В заключении добавить, что великий реформатор шел против политики хивинского ханства он всё-таки сумел сделать хотя немного но очень важное для жизни хивинского ханства.

Использованные литературы:

1. Полвониёз Юсупов. Ёш хиваликлар тарихи. Урганч.,2000й
2. Худойберганов К. Хива хонлари шажараси. Урганч.: 1996й.
3. Погорельский И.В. История Хивинской революции 1917-1924 гг. Л.:1984г
4. Худойберганов К. Хива хонлари тарихидан. Урганч: 2000й



O'QUVCHILAR ONGIDA TARIXIY OBIDALARIMIZ HAQIDA BILIMLARINI SHAKLLANTIRISH ORQALI ULARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH

Matkurbanova Munira Maqsudovna

Xorazm viloyati Yangibozor tuman

25-umumiy o'rta ta'lim maktabi

Tarix va huquq fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada madaniy-tarixiy obidalar (ziyoratgohlar)ning ijtimoiyma'naviy va tarbiyaviy ahamiyati hamda o'quvchilarida ziyoratgohlar to'g'risidagi bilimlarni yanada oshirishda ayrim ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish usullari yorilgan.

Kalit so'zlar. Madaniy-tarixiy obidalar, ziyorat turizmi, madaniy meros obyektlari, muqaddas qadamjolar.

Madaniy-tarixiy obidalar har bir xalqning milliy qadriyatlarini, moddiy va ma'naviy madaniyatini o'zida mujassam etgan muqaddas joylar sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Inson ongida ma'naviy qarashlarni shakllantirish va rivojlantirishda, uni singdirishda tarixiy-madaniy yodgorliklarning o'rni beqiyos. Barcha sohalarda ulkan islohotlar va yangilanishlar amalgaga oshirilayotgan hozirgi davrda mamlakatimizda ziyorat turizmini rivojlantirishga ham alohida e'tibor qaratila boshlandi. Chunonchi, bugun matbuotda yoki kundalik muloqotda turizm, ziyorat turizmi, gastronomik turizm, ekologik turizm kabi atamalarni qo'llash keng ommalashdi.

O'tmish yodgorliklari ya'ni madaniy-tarixiy obidalarni qayta tiklanishi, u yerlarga sayyoohlarni yanada kengroq jalb etish hamda sohani yanada takomillashtirishning yangi bosqichiga ko'tarilishi, ushbu madaniy meros obyektlarining bugungi kunda mamlakat rivoji va aholi turmush tarzida o'rni muhim ekanligini ko'rsatmoqda. Ayniqsa, bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining alohida Farmoni va tegishli qarorining qabul qilinishi yurtimizdagи madaniy-tarixiy obidalar imkoniyatlaridan yanada kengroq foydalanishni, yoshlар ongida bunday muqaddas qadamjolar to'g'risidagi tasavvurlarni yanada boyitish va rivojlantirishda muhim qadam bo'ldi.

So'nggi yillarda tarixiy merosimizni asrab avaylash, madaniy meros obyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish, ularni ta'mirlash va obodonlashtirish, jumladan, ziyorat turizmi sohasini ravnaq toptirishga, shu orqali aholi turmush tarzini yaxshilash, ular uchun munosib hayot asoslarini yaratib berish borasida O'zbekiston bo'ylab sayohat qil!dasturining qabul qilinishi ushbu masalalarga bugungi kunda davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilayotganligidan dalolatdir. Bu esa ushbu yo'nalishdagi ishlarni jadallashtirish nuqtayi nazaridan ajdodlarimizning tarixiy an'analariga hamda tajribalariga tayangan holda ish olib borish zaruratini tug'dirmoqda.

Mazkur omillar jamiyatimizda kechayotgan jadal islohotlar sharoitida o'zbek xalqining an'anaviy, moddiy va ma'naviy madaniyati durdonalarini ta'lim muassasalarida, ayniqsa, oliv ta'lim tizimida ham o'rganishni taqozo etmoqda.

Madaniy-tarixiy obidalar bilan bog'liq mavzuni barcha ijtimoiy-gumanitar fanlarda, xususan, pedagogika fani darsida, tarix, dinshunoslik, ma'naviyat asoslari, falsafa, sotsiologiya kabi fanlar doirasida ham tashkil etish mumkin. Ushbu texnologiyaning o'ziga xosligi shundaki, bunda o'quvchilar individual, ya'ni yakka holda va guruhlarda ishlaydilar. Buning uchun o'quvchilarga mavzuga oid materiallar tarqatildi. Darsning borishi esa quyidagicha kechadi:

—*Madaniy-tarixiy obidalarni ijtimoiy-ma'naviy va tarbiyaviy ahamiyati.*

Shu o'rinda ushbu masalani pedagogika fani doirasida ko'rib chiqaylik. Bunda o'quvchilarda madaniy-tarixiy obidalar haqida tushunchalar hosil qilishning birinchi turi – bu ular haqida nazariy bilimlarni shakllantirishdir. Buning uchun o'qituvchida o'sha hududda joylashgan ziyoratgohlar haqida ma'lumotlar yoki hujjatlar bo'lishi kerak.

Masalan, mavzuni Toshkent shahri yoki Toshkent viloyati misolida ko'rib chiqaylik.

Dastlab, Toshkent viloyatidagi —Zangiota ziyoratgohiga xayolan sayohat uyuştirib ko'raylik, so'ngra amaliy qismiga o'tiladi.

O'qituvchi darsni nazariy qismida o'quvchilarga mazkur dargoh haqida savollar beradi. Unda quyidagi taxminiy savollar bo'lishi mumkin:

1. *Madaniy-tarixiy obidalar nima?*
2. *Zangiota ziyoratgohi haqida nimalarni bilasiz?*



3. *Mazkur dargoh qaysi hududda joylashgan, fuqarolarning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishdagi o'rni qanday?*

4. *O'zbekistondagи yana qaysi madaniy-tarixiy obidalarni bilasiz?*

Yuqorida berilgan savollar asosida o'qituvchi darsda o'quvchilardan zarur javoblarni oladi, o'zaro muhokama tashkil etadi, javoblarni to'ldiradi hamda o'quvchilarni baholaydi.

O'qituvchi va o'quvchilarda ziyyaratgoh haqida nazariy va amaliy ko'nikmalar, bilimlar shakllantiriladi, bu ularni mustaqil fikrlashga, ijod qilishga undaydi. Madaniy-tarixiy obida haqidagi manbalar nodir qo'lyozmalar hamda tarixiy hujjatlardan foydalanishga, o'quvchilarda yaqin va uzoq o'tmishimiz, diniy ulamo va avliyolar haqida tushunchalar hosil qilishga, ularning dunyoqarashi, tafakkurini yuksaltirishga, mustaqil ijod qilish qobiliyatlarini namoyon etishlariga va shu asosda yakuniy xulosalar chiqarishga chorlaydi. Qolaversa, bu boradagi bilimlar o'quvchilarni vatanparvarlik, milliy g'urur va iftixon, ma'naviy-axloqiy ruhda tarbiyalaydi, ularda yurt taqdiriga daxldorlik sifatlarini shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risidagi Farmoni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06.02.2018-yil.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-fevraldagi —Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risidagi qarori.

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 26-КҮП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

(3-қисм)

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович

Мусаҳҳих: Файзиев Фаррух Фармонович

Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.03.2021

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000